

PAXTA XOMASHYOSINI JINLASHDAN OLDIN TABIIY USULDA NAMLIGINI ANIQLASH

M.A. Maxamadaminov

Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada paxta xomashyosini jinlashdan oldingi namligini aniqlash, namlikni tabiiy quritish jarayonida variantlar orqali farq ko'rsatgichlarini aniqlash asosiy omillardan biri ekanligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy quritish, paxta, namlik va quritish maydonlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье указывается, что одним из основных факторов является определение влажности хлопчатобумажного сырья до деминерализации, определение показателей разницы между вариантами естественного высыхания влаги.

Ключевые слова: Естественная сушка, хлопок, влажность и области сушки.

ABSTRACT

This article cited the determination of the moisture content of cotton raw materials before Jinning, the identification of difference indicators through options in the process of natural drying of moisture, as one of the main factors.

Keywords: Natural drying, cotton, moisture and drying areas.

KIRISH

Jahon bo'yicha Xitoy, Hindiston, AQSH va Pokistonda paxta xomashyosining asosiy qismi yetishtiriladi. Respublikamizda bir qator olimlar tomonidan paxta navlarini yetishtirish va ko'paytirish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha bugungi kunda dunyoda 6-o'rinda turadi. Hozirgi kunda respublika bo'ylab o'rtacha 1,1-1,2 mln tonna paxta hosili olinadi. Savol tug'ilishi mumkin: ittifoq davrida 5-6 mln tonna hosil olingan ekan, o'sha paytlar O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha yetakchi bo'lganmi? Avvalo u paytlarda 5-6 mln tonnalik xirmon bilan maqtanilgan bo'lsa-da, aslida buncha paxta yetishtirilgani katta shubha ostida bo'lgan. Qolaversa, AQSh, Hindiston kabi davlatlar hosildorligi hozirgidan ham yuqori edi. Shuningdek, mahalliy qayta ishlash deyarli bo'lmagan, paxta asosan xomashyo shaklida sotilgan. Mustaqillikdan so'ng

aholining g'allaga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi kun tartibiga chiqdi va paxta maydonlari qisqarib, ko'proq bug'doy ekila boshladi. Shunday bo'lsa-da, paxta yakkahokimligi susaymadi, ayniqsa terim paytida safarbarlik oldingidek edi. Vaqt o'tib paxta yig'im-terimi bo'yicha majburiy mehnatga uzil-kesil chek qo'yildi.

Tadqiqot uslubiyati: Jinlashdan oldin paxtaning namligiga, uni terish usuliga va terim vaqtiga ham bog'liq. Odatda past sortli paxtaning namligi ob-havo sharoitiga qarab yuqori bo'lishi mumkin.

Chigitli paxtani tabiiy usulda quritish – bunda chigitli paxta dala sharoitida ochiq maydonlarda oftobda quritildi;

Tabiiy usulda quritish uchun dalaning o'zida quritish maydonchalari tayyorlandi. Bunda maydonchalar 3 variant qilib tayyorlandi ya'ni paxta namligini aniqlashda tabiiy usul ketma-ketlikda **A1**, **A2** va **A3** qilib bo'lib chiqildi. Paxta namligini aniqlashda bu variantlar muhim hisoblanadi chunki variantlarning qaysi usuli yaxshi ekanligi ajratib olinadi.

Quritish uchun joy va natijalar:

A1-variant. Dala sharoitida tayyorlangan 1x1 maydon, ya'ni taxtadan foydalangan holdagi patnis.

A2-variant. Dala sharoitida 1x1 maydon biton (semon) aralashmasidan tayyorlangan tajriba joyi.

A3-variant. Dala sharoitida 1x1 maydon ya'ni loy va somon aralashmasidan tayyorlangan tajriba joyi.

Tajriba jarayoni va natija:

Paxtalarimizning namligi quritishdan oldin o'lchab olindi. Namlik 24% foyiz paxtaning massasiga nisbatan.

A1-variant. Dala sharoitida tayyorlangan 1x1 maydon, ya'ni taxtadan foydalangan holdagi patnisga 1 kg paxta joylashtirildi va uni 3 kun davomida quyoshda quritdik. Kundalik havo xaroratini 7 marotaba o'lchandi. Sentabr oyining 7-sanasidan 9-sanasiga qadar tajriba olib borildi.

07.09.2022 yil dan 09.09.2022 yil gacha.

1-jadval

	07.09.2022 Daraja C°	08.09.2022	09.09.2022	O'rtacha daraja C°
05:00	16 C°	17 C°	15 C°	16 C°
09:00	20 C°	22 C°	21 C°	21 C°
11:00	25 C°	25 C°	24 C°	24 C°
13:00	32 C°	33 C°	30 C°	31 C°
15:00	33 C°	32 C°	29 C°	30 C°
17:00	28 C°	27 C°	26 C°	27 C°
20:00	23 C°	22 C°	22 C°	22 C°

Natija: 3 kun davomida quritgan paxtamiz 20 % gacha namligi tushdi. Oddiy sharoitda analitik tarozidan foydalandik.

A2-variant. Dala sharoitida 1x1 maydon biton (semon) aralashmasidan tayyorlangan tajriba joyiga 1 kg paxta joylandi va uni ham 3 kun davomida kuyoshda quritib oldik. Kundalik havo xaroratini 7 marotaba o'lchandi. Sentabr oyining 7-sanasidan 9-sanasiga qadar tajriba olib borildi.

07.09.2022 yil dan 09.09.2022 yil gacha.

2-jadval

	07.09.2022 Daraja C°	08.09.2022	09.09.2022	O'rtacha daraja C°
05:00	16 C°	17 C°	15 C°	16 C°
09:00	20 C°	22 C°	21 C°	21 C°
11:00	25 C°	25 C°	24 C°	24 C°
13:00	32 C°	33 C°	30 C°	31 C°
15:00	33 C°	32 C°	29 C°	30 C°
17:00	28 C°	27 C°	26 C°	27 C°
20:00	23 C°	22 C°	22 C°	22 C°

Natija: 3 kun davomida quritgan paxtamiz 22 % gacha namligi tushdi. Oddiy sharoitda analitik tarozidan foydalandik.

A3-variant. Dala sharoitida 1x1 maydon ya'ni loy va somon aralashmasidan tayyorlangan tajriba joyiga 1 kg paxta joylashtirildi va uni 3 kun davomida quyoshda quritdik. Kundalik havo xaroratini 7 marotaba o'lchandi. Sentabr oyining 7-sanasidan 9-sanasiga qadar tajriba olib borildi.

07.09.2022 yil dan 09.09.2022 yil gacha tajriba vaqti.

Natija: 3 kun davomida quritgan paxtamiz 21 % gacha namligi tushdi. Oddiy sharoitda analitik tarozidan foydalandik.

XULOSA

Quritishga mansub bo'lgan chigitli paxta namligiga qarab 10–15 sm qalinlikda maydonchaga oftobda yoyib qo'yildi. Quritishni tezlatish uchun yoyilgan paxta ma'lum vaqtlarda ag'daralib turildi. Chigitli paxtani tabiiy usulda quritib namligini 2–3% ga kamaytirish mumkin va tabiiy usulda quritilgan paxtaning qaysi birida namlik ko'proq kamayishi ham aniqlandi. A1V 4% kamaydi, A2V 2 % kamaydi va A3V 3% kamaydi. Shuni aytish mumkingi taxta patnisdan foydalanilganda namlikni kamayishi ko'proq bo'ldi va tabiiy quritishda muqobil variant A1 hisoblandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. BP Saville. (2000). Physical testing of textiles. Textile Institute CRC Press, Wood Head Publishing Limited.
2. Steven B. Warner. (1995). Fiber Science Prentice Hall Publishers. Samir Kumar Mukhopadhyay. (1992). Advances in fiber science. Textile Institute, Manchester, England.
3. O‘z RST 644-95 «Paxta. Namligini aniqlash usullari», O‘z RST 615-94 «Paxta. Texnik sharoitlar.»
4. Jabborov G‘.J., Otametov T.O., Hamidov A.X., Chigitli paxtani ishlash texnologiyasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1984, 323 b.